

**O‘ZBEKISTONNING TABIIY VA NOZOEKOLOGIK SHAROITI,  
AHOLI SALOMATLIGIGA TA’SIR ETUVCHI TABIIY VA IJTIMOY  
OMILLAR**

**Xamroyev M.O.,  
Yaqubov F.O.**  
*Urganch davlat universiteti,  
O‘zbekiston*

***Аннотация:** Проанализированы природные и нозоэкологические условия Узбекистана, региональные особенности природных и социальных факторов, влияющих на здоровье населения.*

***Ключевые слова:** экологическая система, социально-экономическая среда, благоприятные эколого-оптимальные условия, фауна и флора, провинция, пустыня, оазис, горные ландшафты.*

***Abstract:** The natural and non-ecological conditions of Uzbekistan, regional characteristics of natural and social factors affecting the health of the population are analyzed.*

***Key words:** ecological system, socio-economic environment, favorable ecological optimal conditions, fauna and flora, province, desert, oasis, mountain landscapes, desert, oasis, mountain landscapes.*

Mintaqaviy ekologik tizim tabiiy va insonning faoliyati – antropogen omillar ta’sirida shakllanadi, o‘zaro uyg‘unlashgan tabiiy va ijtimoiy murakkab majmuadan iborat bo‘ladi. Tabiiy va ijtimoiy sharoit unsurlar bevosita insonning sog‘ligi va fiziologik tuzilishini belgilaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy muhit inson salomatligi barqarorligi ta’minlaydi. Masalan, qulay ekologik optimal sharoit insonni barkamol fiziologik rivojlanishi, yashashi va ko‘payishi uchun sharoit yaratadi. Qulay iqtisodiy – ijtimoiy sharoit unning moddiy – ma’naviy ehtiyojlarini qondiradi, aksincha regress jamiyat rivojlanishida turg‘unlik va teskari rivojlanishni keltirib chiqaradi.

Hududining katta qismi pasttekislik va tekisliklardan iborat, Ustyurt plastosi va tog‘ oldi adirlar balandligi 200 m dan ortadi. Shimoli-g‘arbda tekislik (Qozog‘iston) provintsiyasining katta qismini Ustyurt platosi (cho‘l, chalacho‘l, quruq dashtlar) egallab yotadi. O‘zbekistonning markaziy qismi Turon tabiiy - geografik provintsiyasi tekislik qismining katta hududi Qizilqum cho‘li egallagan. Bu yerda mustahkamlangan va ko‘chma qum barxanlari, qadimiy qoldiq tog‘lar va qisman toshloq va gilli cho‘llar tarqalgan. Qizilqumda orol tarzda u yer bu yerda foydali qazilma konlari yaqinida (asosan shaharlar: Uchquduq, Zarafshon, Gazli) hamda chorvachilik nuqtalaridagi (Ko‘lquduq, Oqbaytal, O‘temurot va xokazo) aholi manzilgohlari barpo etilgan[1].

Quyil Amudaryo va Quyil Zarafshon tekislik va tog‘ va tog‘ oldi O‘rta Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Mirzacho‘l, Chirchiq-Ohangaron, Farg‘ona tabiiy geografiya okruglari asosan voha hamda vodiylardan tagkil topgan. Bu yerda aholi yashashi uchun sharoit bir muncha qulay.

O'zbekiston ichki o'lka bo'lib, Yevrosiyo materigining markazida, subtropik va mo'tadil mintaqalarning cho'l zonalarida, subtropik iqlimli O'rta dengiz bo'yi mamlakatlari kengliklarida joylashgan. Ammo O'zbekiston tabiiy sharoiti O'rta dengiz bo'yi mamlakatlarinikidan ancha farq qiladi, chunki O'zbekiston okean va ochiq dengizlardan juda uzoqda joylashgan. Eng yaqin iliq Hind okeanining ta'siri o'rtada baland tog'lar bo'lgani uchun sezilmaydi. Aksincha ancha olisda joylashgan Shimoliy Muz okeani hamda Sibirning quruq va sovuq havo massalari O'zbekiston shimolida tabiiy to'siq-baland tog'lar bo'lmaganligi uchun bu yerga bemalol kirib keladi. Atlantika okeani va O'rta dengiz juda uzoqda bo'lsa ham g'arbiy shamollar tufayli Respublikamiz tabiatiga ancha kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston hududi ichki o'lka bo'lganligidan bu yerda tipik kontinental iqlim tarkib topgan. Respublika mo'tadil, uning markaziy va janubiy qismlari subtropik iqlim mintaqalarida joylashgan. O'zbekistonning mo'tadil mintaqadagi qismi Ustyurtda, Orolning qurigan qismida, Amudaryo etagi, Qizilqumda iqlim qurg'oqchil, ancha sovuq. Subtropik mintaqadagi Qashqadaryo va Surxandaryo vodiylarida esa yoz quruq, issiq, qish nisbatan iliq bo'ladi. O'zbekistonda asosan cho'l, voha, tog' landshaftlari ko'pchilikni tashkil etadi. Iqlimda o'ziga xos keskinliklar mavjud. Cho'llarda yog'in miqdori 70-80 mm dan tog'larda 1000 mm gacha boradi. Qishda shimolda  $-35^{\circ}$ ,  $-40^{\circ}$  C li sovuqlar (maksimal), yozda esa janubda  $+50^{\circ}$  C li jazirama issiqlar kuzatiladi[1].

Aholi salomatligiga keng ma'nodagi ijtimoiy borliqning rivojlanishi va tashkil etilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ijtimoiy-iktisodiy omillar inson jismoniy barkamolligi va rivojlanishiga tabiiy muhitga qaraganda, yuqorida ta'kilanganidek, hududning ekologik omillari (yoki geoekologik omillar) bilan birlashib, kompleks hal etuvchi kuch sifatida gavdalanadi. Agar, qulay mehnat sharoiti va ish haqi, qo'pol qilib aytganda qorin to'ydirish, kiyinish, ta'lim va hunar o'rganish va xokazolar uchun sharoit bo'lmasa ushbu mintaqalar aholisi o'z rivojlanishida orqada qoladi.

Ijtimoiy-ekologik mintaqaviy sistema tabiiy va boshqariladigan o'zgaruvchan tizim ijtimoiy faoliyati davomida o'zaro uyg'unlashib ketgan voqelikning inson hayoti bilan murakkab qobig'ini qamraydi. Tabiiy tizim unsurlarining holati bevosita insonning sog'ligi va fiziologik tuzilishida aks etadi. Ijtimoiy muhit esa inson salomatligining barqarorligi, saqlanishi, o'zgaruvchanligini ta'minlaydi. Masalan, qulay tabiiy sharoit insonning moslashuvini ritmlarini unchalik murakkab bo'lmasligi ta'minlasa, og'ir ijtimoiy-iqtisodiy sharoit og'ir mehnat va kam ish haqi bilan bog'liq jismoniy va ruhiy urinishlar inson yashash optimumidan tashqari chiqishga va salbiy holatlarni keltirib chiqaradi[6].

Inson butun jamiyat taraqqiyotida o'z hayotini yengillashtirish, mehnat va ishlab chiqarish vositalarini takomillashtirish ustida tinimsiz izlangan va u atrofidagi ijtimoiy borliqni o'zgartira borgan. Ushbu jarayonda inson organizmi ma'lum adaptatsiya (moslashuv) bosqichini o'tib keldi. Bunday moslashuv cho'l, voha, tog' landshaftlari ko'lamiga qarab dastlab biologik ko'rinish kasb etgan bulsa, keyinchalik u tez o'zgarib va rivojlanib borayotgan industrial davrda ijtimoiy ko'nikma tarzidagi

sifat kasb etmoqda. Bu davrda antropogen ta'sir ostida tez o'zgarayotgan ekotizm sharoitiga inson organizmi moslasha olmayapti. Bu esa, o'z navbatida, aholi salomatligi holatiga tabiiy ekologik omilga nisbatan ijtimoiy omillarning kuchliroq ta'sir etishiga sabab bo'lmoqda.

Aholik soning ortib borishi hududda ijtimoiy zichligining oshishiga olib keladi. Industrlashuv va shaharlashuv, logistikaning rivojlanishi va zichligi ortishi resurslar o'zlashtirilishining kuchayishi, ya'ni antropogen bosim makonning nozoekrhologik va nozogeografik turlanishiga olib keladi. Shaharda tarnsport turlarining ko'payishi yer ostidan tortib yuqori qavatlargacha rivoji havo, tuproq va yer osti suvlarining ifloslanishi shovqin, mikroseysmiklikning ortishi shahar aholisida yurak-qon tomir, saraton, astma, stress, depressiya, qandli diabet, orientatsiyani yo'qotish va xokazolarni shakllanishiga sharoit yaratmoqda. Ta'kidlanganidek, ijtimoiy omillar yoki muhit nozoekologik sharoitning yomonlashtiradigan asosiy kuchga aylangan[5].

Aholi ijtimoiy hayotining yengillashuvi va yangi noan'anaviy salbiy odatlarning rusum bo'lishi, aholining kam harakatlashib jismoniy mehnatining ko'proq texnikaga yuklana borishi, inson ekologiyasi muhitini salbiy tomon rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, ortiqcha ovqatlanish, chekish, ichish, kam harakat, elektrotexnika va elektron vositalardan ko'p foydalanish va xokazolar inson immun tizimini asta-sekinlik bilan zaiflashtira borishi allaqachon o'z isbotini topgan.

Yuqoridagi tahlillar respublikaning katta tekislik cho'l-voha ekstraarid iqlimiy sharoiti, fasliy, sutkalik harorat amplitudalarining kattaligi, (Orol tubidan ko'tariladigan) chang-tuzli havosi hamda quyi oqimiga qarab mineralizatsiya darajasi ortib ichishga yaroqsiz holatga borib qoladigan oqar suvlari shu mintaqada joylashgan qator mamlakatlarnikiga qaraganda og'ir nozoekologik sharoitni shakllantirgan. Mahalliy aholi bunday sharoitga qadimda o'ziga xos kiyinish va ovqatlanish, mehnat qilish madaniyati bilan moslashgan. Hozirda ma'lum darajada xalqaro qoliplarga tushga hayot tarzimiz hamda xo'jalik faoliyatimiz insonning normal ijtimoiy faoliyatini, sog'liq-salamatigini ushlab turish uchun qator sa'y – harakatlarni amlga oshirishni talab qiladi. Ayniqsa bu qishloq joylardan ijtimoiy zichligi 15-20 marta yuqori shahar joylarda qator yechimlar majmuini ishlab chiqishni talab qiladi. Jumladan bunday joylarda tez yuzaga kelishi mumkin bo'lgan infektsiyali va boshqa nozologiyalarni oldini olish uchun maishiy va kommunal hamda tibbiy xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni aholi demografik va sotsial harkatiga mos rivojlantirib borish talab etiladi. Ushbu bo'g'inda sifatli sanitar nazorat, to'g'ri tashkil etilgan tibbiy xizmat ko'rsatish sohalari muhim o'rin tutadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Хасанов И.А., Фуломов П.Н. Ўзбекистон табиий географияси.-Т.: “Ўқитувчи”, 2006. - 175 б.
2. Komilova N. K. et al. Urboekological situation and regional analysis of population health in Uzbekistan //International Journal of Agricultural Extension. – 2021. – Т. 9. – №. 4. – С. 65-69.

# «ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ НАРОДНОГО ХОЗЯЙСТВА В БАССЕЙНЕ АРАЛЬСКОГО МОРЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ КЛИМАТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ»

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

3. Hamroyev M. O., Gulimmatov I. B., Gulimmatova I. B. XORAZM VILOYATI AHOLI PUNKTLARIDA, AHOLI SALOMATLIGI VA TIBBIY XIZMAT KO 'RSATISH TIZIMINI YAXSHILASH MASALALARI //Экономика и социум. – 2023. – №. 5-2 (108). – С. 120-126.
4. Komilova N. et al. THE IMPACT OF URBAN AIR POLLUTION ON HUMAN HEALTH //Medical Perspectives/Medični Perspektivi. – 2023. – Т. 28. – №. 3.
5. Ozodovich X. M., To' Lqinovich E. Q. Tibbiy ekologik rayonlashtirishning nazariy masalalari //Life Sciences and Agriculture. – 2020. – №. 2-2. – С. 135-138.
6. Хамроев М. Социальная экология Хорезмской области и географические особенности здоровья населения //Каталог авторефератов. – 2009. – Т. 1. – №. 1. – С. 1-25.
7. Komilova N. K. et al. Medical Geographical Analysis Of Population Health In Arid Climate Areas //European Journal of Molecular and Clinical Medicine. – 2021. – Т. 8. – №. 2. – С. 1106-1117.
8. Mead M.N Benefits of sunlight: a bright spot for human health // Environmental Health Perspectives. № 116 (4)., 2008. – P. A160-A167. // <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/18414615/>
9. Вернадский В.И. Биосфера.- М.: Наука, 1975.-114 с.